
Behruzбек Qoraboyevga ham Qirguli mavzeidan yangi uy topshirildi
Yaqinda Farg'ona shahrilik Alisher Sobirov va Komilaxon Yusupovalar nomlariga rasmiylashtirilgan kvartiralar kalitlarini qabul qilib olgan edilar.

Navbatdagi uy Behruzбек Qoraboyevga "Yulduz" mahalla fuqarolar yig'inidan topshirildi. E'tiborlisi, xonadon barcha maishiy va zarur uy-ro'zg'or jihozlari bilan to'liq ta'minlandi.

- Men bu ko'rsatilgan g'amxo'rlikdan juda mamnunman, - deydi Behruzбек Qoraboyev.- Kelajakda xalqimiz va Prezidentimiz ishonchini albatta oqlayman.

Joriy yilda Farg'ona shahrida mehribonlik uylarining 7 nafar bitiruvchilariga "Mehr daftari" jamg'armasi mablag'lari hisobidan uy-joylar ajratilgan edi. Shuningdek, yana 11 nafar chin yetim va ota ona qaramog'idagi mahrum bo'lgan bolalarga ham uy-joy topshirilishi belgilangandi. Ayni kunga qadar 3 nafar yoshlarga yangi uylar berildi. Oy yakuniga qadar yana 8 nafar yoshlarga yangi uylar topshiriladi.

2023-10-13 12:32:39